

SHARQ UYG'ONISH DAVRI PEDAGOGIK TAFAKKUR RIVOJIDA SHAXS MA'NAVIY TARBIIYASI

Mamatqulova Dilnoza

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20021990>

Annotatsiya. Sharq uyg'onish davri insoniyat tarixida ilm-fan madaniyat va ta'lim taraqqiyotining yuksak bosqichi sifatida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida yashab ijod qilgan buyuk allomalar inson kamoloti, ta'lim-tarbiya va manaviy barkamollik masalalariga katta e'tibor qaratganlar. AL-Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlarning asarlari ta'lim tarbiyaning nazariy hamda amaliy asoslarini belgilab berdi.

Kalit so'zlar: Sharq uyg'onish davri, pedagogika, ta'lim tarbiya, axloqiy fikrlar, AL-Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib

Annotation: The Eastern Renaissance was of great importance in the development of science, culture and education. Pedagogical views formed during this period were aimed at ensuring the spiritual and moral perfection of a person. The works of thinkers such as AL-Farabi, Ibn Sina, Yusuf Xos Hojib defined the theoretical and practical foundations of education and upbringing. This article examines the development of pedagogical and educational –ethical thoughts during the Eastern Renaissance.

Key words: Eastern Renaissance, pedagogy, education, moral thoughts, AL-Farabi, Ibn Sina, Yusuf Xos Hojib.

Sharq uyg'onish davri insoniyat tarixida ilm-fan, madaniya va axloqiy qadriyatlar rivojlanishida alohida o'rin tutadi. IX-XII- asrlar davomida Sharq mintaqasi dunyo sivilizatsiyasining intellektual markaziga aylandi. Bu davrda ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy asoslari shakllandi, jamiyatning ma'naviy rivoji uchun muhim tamoyillar ishlab chiqildi. AL-Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk mutafakkirlar tomonidan insonni barkamollikka yetaklaydigan ta'limiy axloqiy tizim yaratildi.

Sharq pedagogikasining asosiy maqsadi faqat bilim berish emas balki insonni manaviy jihatdan yuksaltirish uni jamiyatda foydali shaxsga aylantirishdan iborat edi. Bu davr mutafakkirlari ta'limni axloqiy tarbiya bilan uyg'un holda olib borish lozimligi ta'kidlashgan. Ushbu maqolada sharq uyg'onish davri pedagogic qarshlar va ta'limiy-axloqiy tizim yaratildi. Sharq uyg'onish davrida ta'lim va tarbiyaning mohiyati :Sharq uyg'onish davri talim va tarbiyaning rivojida noyob davr bo'lib inson kamolotini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bu davrning asosiy mohiyati shaxsni manaviy , aqliy va jismoniy jihatdan mukkamal rivojlantirishga yo'naltirilgan tamoyillarda namoyon bo'ladi . Talim jarayoni faqat bilim olishda iborat bo'lmay, balki inson axloqini yuksaltirish va uni jamiyat uchun foydali shaxsga aylantirishga asoslangan edi. Sharq uyg'onish davri pedagogic fikrlarning markazida komil inson tarbiyasi g'oyasi turadi. Bu davr allomalari shaxsning manaviy yetukligini jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilganlar.

Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida insonni baxt-saodatga eltuvchi yo'l –bu ilm, odob va ezgu xulq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson tarbiyasida aql bilan bir qatorda axloqiy fazilatlar ham shakllanishi lozim. Forobiy yosh avlodni adolat, hallolik, mehnatsevarlik, ruhida

tarbiyalashni muhim deb hisoblagan. Sharq uyg'onish davri ta'lim va tarbiyaning mohiyati avvalo insonni jamiyatning faol va odobli a'zosi sifatida shakllantirishda, ilm-fan va axloqni uyg'unlashtirishda namoyo bo'lgan. Bu tamoyillar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib zamon talim tizimi uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Madrasalar va ta'lim tizimi: Sharq uyg'onish davrida madrasalar ta'lim va ilm-ma'rifatining asosiy makazlari bo'lgan. Ular nafaqat diniy ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, balki dunyoviy bilimlarni ham o'rgatgan. Madrasalar ilm-fan madaniy va axloqiy tarbiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan muassalar edi.

Madrasalarning tashkil etilishi: Madrasalar dastlab masjid larga qarashli ta'lim maskanlari sifatida shakllangan. Keyinchalik ular mustaqil ta'lim muassalariga aylangan va o'z ichida yaxshi tashkil etilgan o'quv tizimini joriy etgan. Bu muassasalarda o'quvchilar, shayxlar va muddariislar rahbarligida tehsil olishgan. Madrasalarda ta'lim bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lib o'quvchilar avval oddiy bilimlarni egallagan oddiy bilimlarni egallagan, so'ngra murakkab fanlarni o'rganishga o'tganlar.

Ta'lim mazmuni:

1. Diniy ta'lim-quron, hadis, fiqh va tasavvuf kabi fanlar madrasalarning asosiy darsliklariga kirgan. Bu ta'lim axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.
2. Dunyoviy fanlar –matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa, mantiq geografiya kabi fanlar madrasalarda chuqur o'rganilgan. AL-Farobiy va Beruniy kabi allomlarning asarlari ta'lim dasturiga kiritilgan.
3. Til va adabiyot-arab va fors tillarni o'rgatish bilan birga, sheriyat va adabiyotni ham o'qitilgan. Bu yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam bergan.

Madrasalarda ta'lim asosan og'zaki darslar, yozma topshiriqlar va munozaralar orqali olib borilgan. Ilmiy kuzatish va tajribalarga ham katta ahamiyat berilgan. Bu davrda ustoz-shogird an'analari keng tarqalgan bo'lib shogirdlar o'z ustozlaridan nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba ham olganlar. Madrasalarning ahamiyati: Madrasalar sharq uyg'onish davrida ta'lim tizimining asosini tashkil etgan va ko'plab buyuk olimlarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan. Ushbu ta'lim muassalari yosh avlodni nafaqat ilmi, balki ma'naviy jihatdan yuksak shaxs sifatida tarbiyalangan. Ular sharq ma'daniyati va il fanining gullab-yashnashida muhim rol oynagan. Madrasalarning ilg'or ta'lim tizimining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ular ilm-fan va axloqning uyg'unligi tamoyillariga asoslangan bolib, insonning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan edi. Sharq uyg'onish davrida axloqiy tarbiya ta'lim tizimining ajralma qismi bo'lgan. Bu davr mutafakkirlari insonni faqat ilm va hunar egasi sifatida emas, balki yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan manaviy shaxs sifatida shakllantirishni ta'limning asosiy vazifasi deb bilganlar. Axloqiy tarbiya shaxsning nafaqat jamiyatdagi, balki uning o'z ichki dunyosidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qilgan.

Xulosa: Sharq uyg'onish davri ta'lim va tarbiya sohasida beqiyos yutuqlarga erishilgan, ilm-fan va axloqning uyg'unlashgan davri sifatida tarixga muhirlangan. Bu davrda shakllangan ta'limiy tamoyillar insonni nafaqat bilimli, balki axloqiy va manaviy jihatdan yuksak shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan edi. Madrasalar ta'lim tizimining asosiy ustuni bo'lib, dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'unlashuvini ta'minladi, bu esa shaxsning har tomonlama rivojlanishiga imkon beradi. Axloqiy tarbiya esa jamiyatni barqarorlashtiruvchi insonning ma'naviy barkamoligini ta'minlovchi muhim omil bo'ldi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. AL-Farobi, Abu Nasr. Falsafa va Ta’lim. Toshkent:Sharq Noshirlligi
2. Ibn Sino, Abu Ali. Ilm va Ta’lim: Falsafa va Tibbiyot
3. Ibn Xaldun . Muqaddima. Toshkent :Adabiyot va san’at nashriyoti.
4. Karimov. I. Insonning Manaviy Kamoloti va Ta’lim. Toshkent O’zbekiston Respublikasi Prezidenti nashriyoti.